



TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1 iyul holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

4

32 058




Mas'uliyati
cheklangan jamiyat

4 373



Oilaviy korxona

272



Unitar korxona

6 615



Xususiy korxona

51



Aksiyadorlik jamiyati


339



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyun oylarida)

5



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (yanvar-iyun oylarida, birlikda)




Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar



(1-iyul holatiga koʻra, birlikda)

6

Jami faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni oʻtgan yilning shu davriga nisbatan **21,3** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat koʻrsatish

Oʻrmon xoʻjaligi

Baliq xoʻjaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)


7



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,6** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Ishlab chiqarish sanoati



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021- yil 1-iyul holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 9 214 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,6 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 15,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,2 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 15,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,0 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 5,8 % ga kamaygan (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 10,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %) o'sishidir.


Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

8




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,1** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




15,1 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




18,2 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




3,6 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **26,3** foizga oshdi




Xususiy korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

9




2021- yil 1-iyul holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3 811 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,1 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 11,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 52,3 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 18,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,7 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 19,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 40,0 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

2021- yil 1-iyul holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 13949 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,2 % ga oshdi.

Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 25,6 % ga (jami savdodagi ulushi 69,2 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 28,5 % ga (jami savdodagi ulushi 24,0 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 23,8 % ga (jami savdodagi ulushi 6,8 %) o'sishidir.



- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

756



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

25



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

25



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



338

yashash bo'yicha xizmatlar



3 328

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2021- yil 1-iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 3 666 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,5 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 17,0 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yichaxizmatlar sohasidagi ulushi 90,8 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 23,4 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,2 %) o'sishidir.

Kichik tadbirkorlik subyektlari soni


(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

11



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

12



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 4793 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 103 taga yoki 29,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 373 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1092 taga yoki 33,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 665 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80 taga yoki 13,7 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 35 734 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6071 taga yoki 20,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 32 058 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 887 taga yoki 22,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3474 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 394 taga yoki 12,8 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

13




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, 1 528 tani tashkil etib, ulardan 1 391 tasi yoki 91,0 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 143 taga yoki 11,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 94 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)



**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2021- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

14

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Toshkent viloyati	1528	749	779
Oqqo'rg'on t.	17	6	11
Ohangaron t.	84	36	48
Bekobod t.	11	8	3
Bo'stonliq t.	69	37	32
Bo'ka t.	16	8	8
Quyichirchiq t.	46	24	22
Zangiota t.	197	93	104
Yuqorichirchiq t.	128	62	66
Qibray t.	162	81	81
Parkent t.	25	13	12
Piskent t.	20	10	10
O'rtachirchiq t.	99	43	56
Chinoz t.	24	11	13
Yangiyo'l t.	83	32	51
Toshkent t.	90	57	33
Nurafshon sh.	66	29	37
Olmalik sh.	51	14	37
Angren sh.	114	75	39
Bekobod sh.	27	17	10
Ohangaron sh.	48	22	26
Chirchiq sh.	85	51	34
Yangiyo'l sh.	66	20	46

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot displays the official website of the O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. The header includes the national emblem, language options (O'zbek, Russian, English), and social media links. The main navigation bar lists sections like ASOSIY SAHIFA, QO'MITA HAQIDA, AXBOROT XIZMATI, INTERAKTIV XIZMATLAR, OCHIQ MA'LUMOTLAR, MUHOJATLAR, and KONTAKTLAR. The central content area features a dropdown menu under 'INTERAKTIV XIZMATLAR / KTYaDR ma'lumotlari' with options: Xizmatlar ro'yxati, Elektron hisobot, KTYaDR ma'lumotlari, Uslubiy materiallar, Statistik klassifikatsiyalar, Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati, and Korxona pasporti. The 'Korxona pasporti' form is active, showing fields for 'STIR kodini kiriting' and 'Rasmdagi kodni kiriting', with a 'Qidiruv' button. The left sidebar contains 'RASMIY STATISTIKA' links, and the right sidebar lists 'FOYDALI MA'LUMOTLAR'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent viloyati
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi

Tel.:71 202-86-83